

ZAMONAVIY ARXITEKTURA VA SHAHARSOZLIK TENDENSIYALARI

Faritdinov Jur'at Nurmuxammetovich

Alfraganus University Umumkasbiy fanlar
kafedrası katta o'qituvchisi.

e-mail: juratfarid3@gmail.com

+998990807949

Annotatsiya: Zamonaviy dunyoda arxitektura va shaharsozlik insoniyat hayotining ajralmas qismi bo'lib qoldi. Ular nafaqat binolarni qurish, balki shaharlarni rivojlantirish, jamiyatning madaniy va ijtimoiy hayotini shakllantirish, insonlarning turmush sifatini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada arxitektura va shaharsozlikning dolzarbligi, zamonaviy muammolar va ularni hal qilish yo'llari ,arxitektura va shaharsozlik sohalari va tendensiyalari haqida muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Zamonaviy arxitektura, tendensiyalar, shaharsozlik , infratuzilmalar, bunyodkorlik, me'morchilik.

Аннотация: В современном мире архитектура и градостроительство стали неотъемлемой частью жизни человека. Они играют важную роль не только в строительстве зданий, но и в развитии городов, формировании культурной и социальной жизни общества, повышении качества жизни людей. В данной статье рассматривается актуальность архитектуры и градостроительства, современные проблемы и пути их решения, области и направления архитектуры и градостроительства.

Ключевые слова: Современная архитектура, тенденции, градостроительство, инфраструктура, творчество, архитектура.

Annotation: In the modern world, architecture and urban planning have become an integral part of human life. They play an important role not only in the construction of buildings, but also in the development of cities, the formation of the cultural and social life of society, and the improvement of people's quality of life. This article discusses the relevance of architecture and urban planning, modern problems and ways to solve them, the fields and trends of architecture and urban planning.

Key words: Modern architecture, trends, urban planning, infrastructures, creativity, architecture.

KIRISH

Hozirgi kunda yurtimiz bo'ylab, shahar-u qishloqlarimizda ko'kalamzorlashtirish va bunyodkorlik ishlari jadal olib borilmoqda. Qurilish – bunyodkorlik, yaratuvchilik bu hayot talabi bo'lib, iqtisodiyotning yetakchi sohalaridan biri hisoblanadi. Shaharsozlik va qurilishga bo'lgan e'tibor yurtimiz iqtisodiga salmoqli hissa qo'shadi. Yangidan- yangi, zamon talabiga mos binolar, osmono'par inshootlar shahar ko'rkinini ochadi. Maqolam boshida ikki atama, arxitektura va shaharsozlik atamalariga ozgina ma'lumot berim o'tsam:

Shaharsozlik –me'morlikning yirik sohasi hisoblanadi. Shaharsozlik deganda — aholi yashaydigan hududlarni loyiha asosida rejalashtirish tushuniladi. Shaharsozlik ijtimoiy-iqtisodiy, sanitariya-gigiyena, qurilish-texnika, badiiy me'moriy masalalar majmuini qamrab oladi. Shaharsozlik majmui me'morlik va qurilish bunyodkorligi, jamiyatning ijtimoiy tizimi va ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiyot darajasi, madaniyati, tabiiy iqlim sharoitlari va milliy o'ziga xosligi bilan belgilanadi. Shaharsozlik o'z navbatida qishloq aholi turar joylarini rejalash, landshaft me'morligi, bog' barpo etish, tumanlarni rejalash, sanoat korxonalari, dam olish mintaqalarini ratsional ravishda joylashtirish, ekologiya masalalari kabi bir necha tarmoqlarga bo'linganligi, shahrida turar joylarning nafaqat me'moriy badiiy qiyofasiga, estetik jihatlariga, balki obodonlashtirishga — yo'llar, ayniqsa, avtomobil yo'llariga, infratuzilma (suv, oqava — kanalizatsiya, gaz, elektr va boshqalar muhandislik ta'minotlari)ga katta e'tibor beriladi. Shaharsozlikda yangi shahar, shaharcha, qishloqlarni qurish, qadimiy shaharlarni muhofaza qilish (rekonstruksiya qilish), me'moriy majmualar (ko'proq turar joy.mavzelari)ni bunyod etish bosh reja asosida amalga oshiriladi, bunda loyihalarni ishlab chiqish (tuzish) muhim o'rin tutadi.(1-rasm)



1-rasm Shaharsozlik –tushunchasi : yangilangan aholi turar joylarining arxitekturasi va zamonaviy,qulay infostrukturası misolida.

Endi arxitektura atamasiga ta'rif berib o'tilsa, Arxitektura bino va inshootlarni loyihalash, qurish va bezatish san'ati; me'morlikdir. Arxitekturaning kelib chiqishi dastlab boshpana yaratishdan boshlanganligi tufayli bino va inshootlar ichida turar-joy me'morchiligi eng qadimiy soha hisoblanadi. Qolgan bino turlarining aksariyati turar joylardan kelib chiqqan. Dastlab ibodatxonalar, keyin ustaxonalar va undan so'ng boshqa-boshqa imoratlar uy-joylardan ajralib chiqa boshlashi natijasida oldiniga soddaroq keyin esa maktab, kafe, teatr, fabrika singari murakkab bino turlari kelib chiqdi va bu uzluksiz davom etib boraveradi. Shuning uchun ham turar-joylar va ularning majmualarining shakllanishining estetik masalalarini o'rganish hamma vaqt ham me'morchilik va shaharsozlikda o'ta muhim masala hisoblanadi. Shunday qilib, arxitektura insoniyat taraqqiyotining bir turi bo'lib, uni oddiy qurilish ishi bilan chegaralab boimaydi, lekin, uni faqat badiiy ijod turi deb ham bo'lmaydi. Har bir davrda arxitektura tushunchasi turlicha talqin etilgan. Shuningdek, arxitektura ta'limi 21-asr uchun haqiqatan ham barqaror yangi dizaynlarni ishlab chiqarishga yordam beradigan birinchi qadam bo'lishi kerak.

Inson hayoti va faoliyati uchun zarur bo'lgan makonning loyihasini yaratish va uni qurish me'morlik san'atining mazmunini tashkil etadi. Turar joylar, yo'llar, hiyobonu maydonlar, yirik suv inshoot va madaniy xordiq uchun mo'ljallangan me'moriy majmualar hammasi shu san'atning turli ko'rinishlaridir. Bular uning bosh quruvchisi - arxitektori (me'mori) tomonidan loyihalashtiriladi va rahbarligida amalga oshiriladi. Bino va inshootlarning nima maqsadga xizmat qilishi, ya'ni ularning bajaradigan vazifasi aniqlanadi, uning to'g'ri hal qilish esa me'morlik asarini yaratishdagi asosiy omillardan hisoblanadi.

Yana bir tomondan -Arxitektura – sun'iy fazoviy muhit yaratish vazifasiga ega bo'lgan shunday faoliyat sohasiki, qaysiki bunda jamiyat va alohida odamlarning barcha hayotiy jarayonlari sodir bo'ladi – mehnat, xo'jalik, ma'daniyat, munosabat, hordiq va boshqalar. Moddiy ishlab chiqarish sohasi kabi, arxitektura qurilish texnikasiga tayanadi, moddiy muhit kabi – jamiyatning ijtimoiy sharoitini aks ettiradi, san'at kabi – chuqur hissiy ta'sir ko'rsatishga qodir. Binolar, inshootlarni va ular majmuasini me'moriy loyihalash bino vazifasi talablari, fizik qonunlar va estetik qonunlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Arxitektura va shaharsozlik aslida - bu insoniyat hayotini shakllantirishda ajralmas rol o'ynaydigan, bir-biri bilan chambarchas bog'liq ikki soha. Ularni quyidagicha tushunish mumkin:

- Binolarni loyihalash va qurish san'ati va fanidir. U binolarni estetik jihatdan chiroyli, funktsional va xavfsiz qilishga qaratilgan.

•Arxitektura binolarning ichki va tashqi dizaynini, materiallarni tanlashni, konstruksiyalarni loyihalashni, energiya samaradorligini ta'minlashni, yoritishni, shamollatishni va boshqa ko'plab jihatlarni o'z ichiga oladi.

•Arxitektura odamlarning turmush sifatini yaxshilash, ularga qulay va xavfsiz muhit yaratish, jamiyatning madaniy va ijtimoiy hayotini shakllantirishga qaratilgan.

•Shaharsozlik shaharlarning infratuzilmasini, transport tizimini, turar joylarni, jamoat joylarini, ekologik jihatlarni va boshqa ko'plab jihatlarni o'z ichiga oladi.2-rasm

•Shaharsozlikda shaharlarni ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan barqaror rivojlantirishga qaratilgan strategiyalar ishlab chiqiladigan soha.

•Shaharsozlik shaharlarda yashaydigan odamlarning hayot sifatini yaxshilash, ularga qulay va xavfsiz muhit yaratish, jamiyatning rivojlanishiga hissa qo'shishga qaratilgan.

Arxitektura va shahrsozlik o'rtasidagi bog'liqlik :

Arxitektura va shaharsozlik bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Shaharlarning infratuzilmasi va jamoat joylarini loyihalash arxitektura elementlaridan foydalanadi, binolar esa shahar kontekstida joylashgan bo'lib, shaharning umumiy estetikasiga ta'sir qiladi. Arxitektura va shaharsozlik insoniyat hayotini shakllantirishda ajralmas rol o'ynaydi. Ular binolarni qurish, shaharlarni rivojlantirish, jamiyatning madaniy va ijtimoiy hayotini shakllantirish, insonlarning turmush sifatini yaxshilashga qaratilgan.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda shaharsozlik keng miqyosda rivoj topib, zamonaviy me'morchilik yechimlari asosida shaharlarning qiyofasi kundan-kunga chiroy ochib bormoqda. Shu jihatlardan olib qaraganda, shaharsozlik inson madaniyati va ma'naviyatini rivojlantiruvchi omillardan biri bo'lib qoladi.

Zamonaviy arxitektura va shaharsozlikning dolzarb mavzu sifatida ko'radigan bo'lsak:

•Shaharlarning tez sur'atlarda kengayishi va aholining ko'payishi tufayli turar joy va infratuzilma yetishmasligi, transport muammolari, ifloslanish va boshqa salbiy oqibatlarni nazarda tutgan holda.

•Energiya iste'moli va iqlim o'zgarishi global muammolarga aylanishi. Binolar va shaharlarning energiya samaradorligini oshirish muhimligi.

•Arxitektura va shahrsozlikning ijtimoiy adolat masalalariga, masalan, kam ta'minlangan oilalar uchun arzon turar joy ta'minlash, nogironlarga qulay sharoit yaratish,

- Tarixiy binolar va yodgorliklarni muhofaza qilish, ularni zamonaviy hayotga uyg'unlashtirish muhim vazifa sifatida.

- Zamonaviy texnologiyalar, masalan, 3D bosma, datchiklar, sun'iy intellekt arxitektura va shaharsozlikda yangi imkoniyatlar yaratilishiga asos bo'la oladi.



2-rasm .Ekologik toza shaharsozlik

Arxitektura va shaharsozlik dolzarbligi zamonaviy jamiyatning rivojlanishi va barqarorligi uchun muhimdir. Ushbu sohalarning muammolarini hal qilish uchun ekologik barqaror shaharlar yaratish, jamoat transporti tizimini rivojlantirish, arzon va qulay turar joylar qurish, ijtimoiy adolatni ta'minlash va texnologiyalarni qo'llash kerak.

Yurtimizda shaharsozlik ko'lamini oshirish uchun ham bir qator harakatlar qilinmoqda. Shu sabab arxitektura va shaharsozlik sohalari jadal rivojlanayotgandur. Bunga yorqin misol sifatida:

Prezident tomonidan 2024 yil 10 sentabrdagi "Shaharsozlik faoliyati sohasida davlat boshqaruvi va aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan Shaharsozlik kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun imzolanganini qayd etishimiz mumkin.

Ushbu kodeks orqali: Ma'muriy islohotlar doirasida bir qator respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarini transformatsiya qilish munosabati bilan Shaharsozlik kodeksiga ushbu organlarning nomi va vakolatlarini aniqlashtirish, shuningdek aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish uchun tegishli o'zgartirishlar kiritilishi;

Qonun bilan Shaharsozlik kodeksiga O'zbekiston hududini rivojlantirishni rejalashtirish bosh tarhini hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar

hududlarini rivojlantirishni rejalashtirish tarhlarini ishlab chiqish yo‘li bilan aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini tayyorlash tizimini takomillashtirishni nazarda tutuvchi o‘zgartirishlar ham kiritilishi;


Hujjatning qabul qilinishi shaharsozlik faoliyati sohasida davlat boshqaruvi tizimini, shuningdek O‘zbekiston hududini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning uzoq muddatli prognozlariga muvofiq shaharsozlik hujjatlarini tayyorlash tizimini takomillashtirishga xizmat qilishi ta’kidlandi.

Bundan o‘n yillar ilgari qurilgan uy-joylar bilan yurtimizning bugungi qiyofasini aslo solishtirib bo‘lmaydi. Bir paytlar xorij filmlaridagina ko‘rgan ajoyib qiyofadagi binolar bugun O‘zbekistonimizning barcha hududlarida qad rostlamoqda. Bunga yorqin misol sifatida Tashkent city –ya’ni tarixda Olmazor va O‘qchi mahallasi deb yuritilgan joy avval va hozirgi ko‘rinishi judafarqli. Bu ham bo‘lsa shaharsozlik va arxitekturaning natijasi. 3-rasm

Har qanday loyiha eng avvalo, puxta o‘rganish va izlanishlar natijasida yaratilishi kerak. Shu bois, loyihaga buyurtma olingach, eng avvalo, obe’kt sinchkovlik bilan o‘rganib chiqiladi. Masalan, baland qavatli bino qurilishi lozim, ammo uning atrofidagi imoratlar bir qavat bo‘lsa, bu vaziyatda buyurtmachi bilan kelishgan holda, Shaharsozlik norma va qoidalariga muvofiq loyihaga boshqa yechim topiladi.



*Markazdagi ulkan kvadrat — Tashkent City qurilish joyi. Yandex.Karti.
Toshkent 2017yil*



(3-rasm) Tashkent city 2023yil

Maqolamning so'nggi bobida shaharsozlik tendensiyalarga ham to'xtalib o'tmoqchiman. Tendensiya o'zi nima?

Tendensiya bu Taraqqiyot yo'nalishi; biror narsaga qiziqish, moyillik, intilish. Va

Ma'lum o'y-mulohaza, tasvir yoki asarning asosiy mazmuni, g'oyasi hisoblanadi. Demak shunday ekan arxitektura va shaharsozlikning ham o'ziga hos o'y-mulohaza qilinadigan g'oyalari bor.

Bizning hozirgi kunimizda shaharlar tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda va bu jarayon turli xil muammolarni, jumladan, atrof-muhitni ifloslanishi, transport muammolari, ijtimoiy tengsizlik va boshqalarni keltirib chiqarmoqda. Shuning uchun ham zamonaviy shaharsozlikda barqarorlik, innovatsiya va ijtimoiy adolatga asoslangan yangi tendensiyalar kuzatilmoqda. Ya'ni :

Barqaror shaharlar tendensiyasida:

- **Ekologik Tozalik :** Energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash, havo va suv ifloslanishini kamaytirishi, karbon izini qisqartirish kabi ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan strategiya.
- **Yashil Infrastruktura:** Yashil maydonlar, parklar, bog'lar, o'rmonzorlarni kengaytirish, shahar havosini tozalash, bioxilma-xillikni saqlash, shahar issiqlik ortishiga qarshi kurashish va yashash sifatini yaxshilash.(4-rasm)

- Suv Resurslarini Boshqarish: Suv resurslarini samarali ishlatish, suvni tozalash, suv tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish va suv ta'minotini yaxshilash.
- Iqlim O'zgarishiga Moslashish: Suv toshqinlari, issiqlik to'lqinlari, qurg'oqchilik kabi tabiiy ofatlarga qarshi chidamli shaharlarni qurish.



4-rasm.

Innovatsion Texnologiyalar:

•Aqlli Shaharlar: Shahar infrastrukturasi sensorlar, dasturiy ta'minot va ma'lumotlarni tahlil qilish tizimlari bilan jihozlash, transportni boshqarish, energiya samaradorligini oshirish, xizmatlarni yaxshilash va shaharni samaraliroq boshqarish.

•3D Bosma Texnologiyalari: Arzon va tez quriladigan turar joylar, infratuzilma obyektlari va shahar jihozlari yaratish, bu esa shahar qurish jarayonini tezlashtiradi va arzonlashtiradi.

Mobil Transport: Avtomobilga asoslangan transport tizimidan uzoqlashish, jamoat transportini rivojlantirish, piyoda va velosiped yo'llarini kengaytirish, transport tizimini optimallashtirish va shaharlardagi tirbandlikni kamaytirish.(5-rasm)



5-rasm. Piyodalar va velosipedlar uchun yo'laklar aks ettirilgan surat
Ijtimoiy Barqarorlik tendensiyasida

•Inklyuziv Shaharlar: Barcha aholi qatlamlari uchun teng imkoniyatlar yaratish, nogironlarga qulay sharoitlar yaratish, ijtimoiy va madaniy xilma-xillikni hurmat qilish, shaharni barcha uchun qulay va xavfsiz qilish.


•Ijtimoiy Infrastruktura: Bog'chalar, maktablar, shifoxonalar, kutubxonalar, madaniyat markazlari va boshqa ijtimoiy obyektlarni rivojlantirish, aholi ehtiyojlarini qondirish va ijtimoiy hayotni yaxshilash.

•Jamoat Makonlari: Ochiq, funksional va estetik jihatdan yoqimli jamoat makonlarini yaratish, ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash va shahar hayotini boyitish.

Shahar Dizayni va Estetika:

- Shahar Landshaftlari: Shaharni go'zallashtirish, yashil maydonlarni kengaytirish, haykallar va me'moriy yodgorliklarni qurish, shaharni estetik jihatdan yoqimli qilish (6-rasm).

- Funksional Dizayn: Shaharni rejalashtirishda funksionallik va ergonomikaga e'tibor qaratish, yo'llar va piyoda yo'llarini qulay va xavfsiz qilish, infratuzilmani yaxshilash va shaharni foydalanuvchilarga qulay qilish.



6-rasm Toshkentda ladshaft dizayni yordamida alleyalar.

Xulosa qilib aytganda, Arxitektura va shahrsozlik insoniyat hayotini shakllantirishda ajralmas rol o'ynaydi. Ular binolarni qurish, shaharlarni rivojlantirish, jamiyatning madaniy va ijtimoiy hayotini shakllantirish, insonlarning turmush sifatini yaxshilashga qaratilganligini yuqorida ta'kidlab o'tdim va albatta, zamonaviy shahrsozlik tendensiyalari shaharlarni ekologik toza, barqaror, inklyuziv va innovatsion qilishga qaratilgan. Ushbu tendensiyalarni amalda qo'llash orqali biz o'sib borayotgan shaharlarni kelajakda yashaydigan va rivojlanadigan joyga aylantirishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. BIOURBANIZM – TABIAT VA SHAHARSOZLIK A.Q. Baydjanov Urganch davlat universiteti katta o'qituvchisi B.A. Polvanov Urganch davlat universiteti stajyor o'qituvchisi Toshkent 2022
2. KADABAYEVA SHAXNOZA SAIDJANOVNA «ARXITEKTURA VA SHAHARSOZLIK ASOSLARI» 2023
3. M.MUXAMEDOVA “ME’MORCHILIK ASOSLARI” T-2018
4. X. PO ‘LATOV SHAHARSOZLIK TARIXI T-2008
5. M.Q Ahmedov Shaharlar estetikasi T-2016
6. <https://uz.wikipedia.org/-shaharsozlik>
7. <https://yoshlarkelajagimiz.uz/shaharsozlik-ma'lumotlar>
8. (maqolada foydalanilgan suratlar olingan)
9. <https://uz.wiktionary.org/wiki/arxitektura>
10. <https://yuz.uz/uz/news/qurilish-materiallari-sanoati-yangi-davr-yangi-imkoniyatlar>
11. <https://www.ecocertify.org/uz> –(maqolada foydalanilgan suratlar olingan)
12. <https://www.gazeta.uz/oz/2017/10/25/uqchi-olmazor/> (maqolada foydalanilgan suratlar olingan)
13. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/07/12/green-cities/>(maqolada foydalanilgan suratlar olingan)
14. <https://artdeco.uz/landshaftniy-dizayn-v-tashkente/> (maqolada foydalanilgan suratlar olingan)